

2023: International Conference on Research Identity,
Value and Ethics (USA)

<https://conferenceseries.info/index.php/ICRIVE/issue/view/13>

XUDUDLARIMIZDA XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARI IQTISODIYOTINI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI

Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li

Samarqand davlat universitetining

Kattaqo 'rg'on filiali Biznesni boshqarish kafedrasi assistenti

Ibragimova Nilufar Ziyadullayevna

Samarqand davlat universitetining

Kattaqo 'rg'on filiali Biznesni boshqarish kafedrasi assistenti

Xolmirzayeva Shaxribonu Otabek qizi

Samarqand davlat universitetining

Kattaqo 'rg'on filiali Biznesni boshqarish yo'nalishi talabasi

Annotasiya. O'zbekistonda iqtisodiyotni jadal rivojlantirish raqamlashtirishda xizmat ko'rsatish tarmoqlari va sohalari raqamlashtirish muhim ro'l o'yndaydi. Shunday ekan ushbu maqolada xizmatlar sohasini raqamlashtirishning muhim jixatlari ilmiy asoslangan.

Tayanch iboralar: Raqamli iqtisodiyot, strategiya, davlat xizmatlari, internet-reklama, multiservis, raqamli transformatsiya.

O'zbekistonda iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va uning tarmoq va sohalar bo'yicha tarkibiy tuzilmasini zamonaviylashtirish muhim masalalardan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi 60-sonli Farmoniga ko'ra tasdiqlangan "2022-2026yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da belgilab berilgan "Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi 5 yilda aholi jon boshiga YaIMni 1,6 barobar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4000 AQSh dollariga oshirish "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish uchun zamin yaratish"¹ vazifasi belgilangan. Shu bilan birga "Hududlarda xizmat ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirish orqali keying 5 yilda xizmat ko'rsatish xajmini 3 barobarga oshirish hamda ushbu yo'nalishda jami 3,5 million yangi ish o'rinnarini yaratish"². Ushbu vazifani bajarish uchun, ya'ni respublika iqtisodiyotini tizimli tezkor rivojlantirish hamda xizmat ko'rsatishning barcha soha va tarmoqlarda yuqori o'sish sura'tlarini ta'minlash faqatgina iqtisodiyotni raqamlashtirish asosida erishish mumkin. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini raqamlashtirish humatimizning bosh vazifasi bo'lib, ushbu jarayonni amalga oshirish "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasida ham

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 60-сонли Фармонига кўра тасдиқланган "2022-2026-йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси" 2022 йил 28 январь

² Ўша жойда

2023: International Conference on Research Identity, Value and Ethics (USA)

<https://conferenceseries.info/index.php/ICRIVE/issue/view/13>

belgilab olingan. Mazkur strategiya asosida respublikamizda xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyotini jadal rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish ustuvor vazifa xisoblanadi.

Birinchidan, xizmat ko'rsatish tarmoq va sohalarida raqamlashtirishning asosi bo'lgan raqamli infratuzilmani rivojlantirish;

Ikkinchidan, raqamli iqtisodiyotning "Blokcheyn", "Bulutli hisoblash" texnologiyalari asosida xizmat ko'rsatish bo'yicha ma'lumotlarni saqlash va qayta ishslash tizimini rivojlantirish;

Uchinchidan, aholining xizmat ko'rsatishga bo'lgan extiyojini oshib borishida davlat xizmatlari faoliyatini raqamlashtirish va ayniqsa davlat xizmat ko'rsatish doirasida "xizmat sifatida platforma", "xizmat sifatida dasturiy ta'minot", "xizmat sifatida infratuzilma" texnologiyalardan foydalanish.

To'rtinchidan, xizmat ko'rsatish tarmoq va sohalari bo'yicha biznes yuritish va bozorni erkin rivojlantirish uchun yangi biznes modellar yaratish talabini shakllantirish.

Beshinchidan, xizmat ko'rsatish bo'yicha istemolchilarga asosiy va qo'shimcha xizmatlarni rivojlantirishda aholi hayotini qo'llab-quvvatlash imkoniyatini beradigan "multiservis" tarmoqlarini rivojlantirish va boshqalardan iborat.

Xizmat ko'rsatish sohalarida raqamlashtirishni amalga oshirishda birinchi navbatda quyidagi xizmatlar sohasida ushbu jarayonni amalga oshirishga ustuvorlik berish maqsadga muvofiq xisoblanadi.

1. Savdo xizmatlarini raqamlashtirish va bunda elektron tijorat biznes modellaridan foydalanishga ustuvorlik berish.

2. Transport-logistika xizmatlarini raqamlashtirish bo'yicha dasturiy modellashtirish tizimlaridan keng foydalanish.

3. Ta'lim xizmatlarini yangi zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalangan xolda rivojlantirish, jumladan onlayn platformasi asosida zamonaviy raqamli tizimidan foydalanish.

4. Kommunal xizmatlarni raqamlashtirish bo'yicha smart texnologiya-laridan foydalangan xolda "Aqli uy" tajribasini barcha istemolchilarga tizimli joriy etish.

5. Sug'urta xizmatlarini raqamlashtirish bo'yicha "Aqli sug'urta xizmatlari" tizimidan foydalanish. Bunda davlat xususiy sherikchilik asosida raqamli sug'urtani amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish.

6. Iqtisodiyotning boshqa xizmat ko'rsatish tarmoq va sohalarini raqamlashtirish asosida "raqamli servis"ni tizimli yo'lga qo'yish va boshqalardan iborat.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarini raqamlashtirish quyidagi iqtisodiy natijalarni beradi. Jumladan:

Birinchidan, xizmat ko'rsatish bo'yicha qulay davlat xizmatlarini raqamlashtirishni ifodalovchi axborotlardan raqamli ko'rinishda foydalanish imkonini beradi.

Ikkinchidan, fuqorolar arzon sifatlari va havfsiz internet va mobil aloqa tarmoqlaridan foydalanib, samarali biznes qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Uchinchidan, ta'lim xizmatlarini raqamli transformasiya qilish xisobiga yangi talim texnologiyalar asosida yoshlarga yuqori bilim va ko'nikmalar berish imkoniyatiga ega bo'linadi.

2023: International Conference on Research Identity,
Value and Ethics (USA)
<https://conferenceseries.info/index.php/ICRIVE/issue/view/13>

To‘rtinchidan, xizmat ko‘rsatish sohasida “blokcheyn” “Buluthli xizmatlar” hisobiga yuqori sifatli xizmat ko‘rsatish imkoniyati yaratiladi.

Beshinchidan, Respublikadagi xizmat ko‘rsatish tarmoq va sohalarida turli korruption xolatlar oldi olinadi va “yashirin iqtisodiyot”ga barxam beriladi.

Oltinchidan, mamlakatdagi turli aholi qatlamlari uchun hamda uzoq hududda yashovchilarga bir xil xizmat ko‘rsatish imkoniyatlari yaratiladi. Bu esa uzoq tumanlarda yashovchi fuqorolarga xizmatlardan foydalanishda ortiqcha xarajatlarning sarflanishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Yettinchidan, xizmat ko‘rsatishni raqamlashtirish natijasida respublikamiz aholi jon boshiga olinadigan aholi daromadlari miqdori ko‘payib, halqning turmush farvonligi oshadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 60-sonli Farmoniga ko‘ra tasdiqlangan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” 2022 yil 28 yanvar
2. “Raqamli O‘zbekiston-2030” Strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 yanvardagi PF-6079 sonli farmoni.